

Sinf: 4- “V”

Fan: Matematika.

Mavzu:Qoldiqli bo`lish.

Darsning maqsadlari:

- a) Qqoldiqli bo`lish va tekshirish bo`yicha o`quvchilarda bilim, tushuncha hosil qilish.
- b) O`quvchilarni o`zaro hamkor, faol, ishchan va madaniyatli bo`lishga o`rgatish. Hayotni to`g`ri tasavvur eta olish malakasini o`stirib borish, har bir matematik muammolarni ahillik, birodarlik bilan bajarishga o`rgatish, milliy g`urur, iftixor tuyg`ularini shakllantirib borish.
- d) O`quvchilarning hisoblash ko`nikmasini rivojlantirish, matematik tasavvurlarini kengaytirish, fanga, kasblarga bo`lgan qiziqishlarini oshirish.

Darsning tipi: Yangi bilim hosil qilish.

Darsning usuli: Noan`anaviy, slayd.

Darsning uslubi: Interfaol, musobaqa, aqliy hujum, klaster, sinkvayn.

Darsning jihozi: Darslik, mavzuga oid ko`rgazmalar, tarqatma materiallar, qiziqarli o`yinlar, rebus , krassvord testlar, allomalar rasmlari, kompyuter, rag`batlar.

Darsning texnik vositalari: Dam olish daqiqasi uchun mo`ljallangan musiqiy ohang yozilgan magnit lentasi. 1 – slayd:

Darsning blok sxemasi:

1. Tashkiliy qism – 5.
2. O`tilgan mavzuni mustahkamlash, testlar, baholash – 4.
3. Yangi mavzu bayoni – 22.
4. Yangi mavzuni mustahkamlash, , -6.
5. Darsni yakunlash. – 2
6. Uyga vazifa berish – 1.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: O'quvchilar sh'eriya tarzda salomlashadi.

Falakning yulduzi bor,
Kechaning kunduzi bor.
Dildan aytilgan kalom,
Go'zal o'zbek so'zi bor.

Hamma: "Assalomu- alaykum!"

O'qituvchi: Vaalaykum assalom!

Aziz o'quvchilar mana bugun siz bilan yana qiziqarli matematika darsidamiz. Matematika nima deydi?

-Mening ishim hisob – kitob,
Hamda berish nur – u oftob.
Bo'lmay qolsam agar bir kun
Dunyo bo'lar zim – ziyo tun.
O'rgan meni erta – yu kech,
"Yomon baho" bo'lmasin hech.
Kimki bilsa meni a'lo
U bilimli hamda dono.


-Barakalla bolajonlar. Bugungi darsimiz interfaol usulida olib boriladi.
Hozir o'quvchilarni uch guruhga bo'lib olamiz.

2 – slayd.


**1-guruh
Al-
Xorazmiy**



**2-guruh
A.R.
Beruniy**



**3-guruh
Ibn Sino**



- Endi esa guruhlar nomiga ta`rif beraylik:

Al-Xorazmiy bobomiz matematika ilmida buyuk kashfiyotlar qilganlar. Bir raqami yoniga bitta halqa qo`yib, 10 sonini yaratganlar. Dunyo fani rivojiga ulkan hissa qo`shganlar.

Bobomiz A. Rayhon Beruniy matematika, fizika fanlarga ulkan hissa qo`shganlar va ko`plab kitoblar yozib, dunyoga tanilganlar.

Ibn Sino bobomiz tabobat ilmida ko`p ishlar qilganlar. Bemorlarni giyohlar bilan davolaganlar.

**O`qituvchi:** -Barakalla o`quvchilar. Siz ham buyuk ajdodlarimizga munosib farzand bo`lib yetishasiz dagan umiddaman. Qani kim aytadi, o`lkamizga qaysi fasl kirib keldi?

- Bahor faslida tabiatimizda qanday o`zgarishlar bo`ladi?

- Yomg`irdan so`ng osmonda nima paydo bo`ladi?

- Kamalak haqida nimalarni bilasiz?

- Mart oyida biz qaysi bayramlarni nishonlaymiz?

- Siz onangizga nima sovg`a qilmoqchisiz?

- Bugungi darsimizda men sizlarni “Kamalak” usulida va ramziy ma`noda gullar bilan rag`batlantirib boraman. O`ylaymanki, barchamiz ham onamizga gullar etishga oshiqamiz. Bugun darsda kim onasiga chiroyli guldasta yig`ar ekan? Buni dars so`ngida aniqlaymiz. Marhamat, rag`batni ko`paytiring.

O`qituvchi: Bolalar, siz uchun muqaddas joy qayer?

**O`quvchi:** Shu Ona Vatan, hur O`zbekiston!

O`qituvchi: Yashashdan maqsadingiz?

**O`quvchi:** Ona Vatanga munosib farzand bo`lish, halol mehnat qilish.

O`qituvchi: Bolalar, Vatan deganda qayerni tushunasiz?

O`quvchi: Vatan- bu beshigimiz, uyimiz, turar joyimiz.

Vatanimiz? – O'zbekiston!

3 – slayd.




Viloyatimiz? – Navoiy!



Rizqu- ro'zimiz?

–Mehnat-la topilgan non!

4 – slayd.



Tilagimiz? –Tinchlik, obodlik!



Istagingiz? –Ilm-u adab o'rganish.

O`qituvchi: -2012- yil Prezidentimiz tomonidan qanday yil deb e'lon qilindi?

O`quvchi: -2012-yil Prezidentimiz tomonidan “Mustahkam oila yili” deb e'lon qilindi.

-Siz oilangizning mustahkam bo'lishi uchun qanday qilib o'z hissangizni qo'shmoqchisiz?

-A'lo baholaimiz va namunali xulqimiz bilan.

5 – slayd.



O'qituvchi: Juda yaxshi, o'ylaymanki bu ishingizdan ota – onangizning bo'ylari ko'kka yetadi.

- Bolajonlarim, men Vatan ravnaqi uchun nima qildim? so'rog'iga qanday javob berasiz?

O'quvchi: - Biz, yosh avlod sog'lom, barkamol, kuchli va pahlavon yigit va qizlar bo'lib, voyaga yetishib, a'lo baholarimiz bilan Vatan oldida "Labbay" deb javob beramiz.

II. Mana bolajonlar, darsimiz boshida qanchalik bilimga ega ekanligingizni, donoligingizni ko'rsatdingiz. Kelinglar, endi o'tilgan mavzuga qaytsak:

6 – slayd.

Test.

1. Bo'linmani toping? $210 : 10 =$

a) 2100

b) 21

d) 210

2. 400kg pecheniyni har yashikka 10 kg dan qilib joylash uchun nechta yashik kerak bo'ladi?

a) 40 ta.

b) 50 ta.

d) 4 ta.

3. Nuqtalar o'rniga qanday belgi qo'yiladi? $280:70 \dots 540:30$

a) >

b) <

d) =

O'quvchilar rag'batlantiriladi. Uyga vazifa tekshiriladi.

Uyga vazifani tekshirish:

597 – masala.

1 – kun – 3 ta yostiq jildi } 14 m gazlama
2 – kun 4 ta yostiq jildi }
1 – kun - ? m gazlama.

Ye: 1) $3 + 4 = 7$ (ta) yostiq jildi. 2 kunda

2) $14 : 7 = 2$ (m) g 1 ta yostiq jildiga

3) $3 \times 2 = 6$ (m) g 1 – kun sarflangan.

J: 1 – kun 6 m gazlama sarflangan.

598 – misol.

$$2340 \times 80 - 164\,840 = 187\,200 - 164\,840 = 22\,360$$

$$2943 + 205\,480 : 8 = 2943 + 25\,685 = 28\,628$$

$$16\,130 : 10 \times 9 = 1613 \times 9 = 14\,517$$

$$5600 : 700 \times 4 = 8 \times 4 = 32$$

III – Asosiy qism.

7– slayd.

Yangi mavzu bayoni: Qoldikli bo`lish.

Yangi mavzu ko`rgazmalar orqali o`quvchilarga tushuntiriladi.

1) $\underline{274 : 10}$

$$274 : 10 = 27 \text{ (qold.4)}$$

2) $\underline{457 : 100}$

$$457 : 100 = 4 \text{ (qold. 57)}$$

Tushuntirish:

1) 274 soni 10 ga qoldiqsiz bo`linmaydi. 270 ni 10 ga bo`lsak, bo`linma 27, qoldiq 4 bo`ladi.

2) 457 soni 100 ga qoldiqsiz bo`linmaydi. 400 ni 100 ga bo`lsak, bo`linma 4, qoldiq 57 qoldiq.

Tekshirish:

$$27 \times 10 + 4 = 274$$

$$4 \times 100 + 57 = 457$$

8 – slayd.

600 – misol. Guruhlararo musobaqa tarzida yechiladi.

$386 : 10$

$386 : 10 = 38$ (qold. 6)

$1254 : 10$

$1254 : 10 = 125$ (qold.4)

$6247 : 100$

$6247 : 100 = 62$ (qold. 47)

$53913 : 100$

$53913 : 100 = 539$ (qold.13)

$72835 : 1000$

$72835 : 1000 = 72$ (qold. 835)

$263924 : 1000$

$263924 : 1000 = 263$ (qold.924)

9 – slayd.

601-masala.

Masala sharti o`qitiladi, tahlil qilinadi.



5 ta bir xil kanistrda 90 l benzin bor edi. Bir avtomobilga 54 l benzin, ikkinchisiga 36 l benzin quyildi. Birinchi avtomobilga necha kanistr benzin quyildi? Ikkinchisiga-chi?

-Masala nima haqida ekan?

-Benzin qayerdan olinadi?

-O`zbekistonda neft qayerlardan qazib olinadi?

-Bizning Zarafshon shahrimizdan ham biror bir foydali qazilma qazib olinadimi?

-Uni kimlar qazib oladi?

-Siz ham shunday kasb egasi bo`lishni xohlaysizmi?

-Barakalla o`quvchilar, endi masalaga qisqa shart tuzib olamiz:

5 ta kanistrda – 90 l benzin

1 – avtomobilga – 54 l benzin

2 – avtomobilga – 36 l benzin

1 – avtomobilga – ? k. benzin

2 – avtomobilga – ? k. benzin

Ye: 1) $90 : 5 = 18$ (l) b 1 ta k.ga

2) $54 : 18 = 3$ kanistr b. 1 – a.ga

3) $36 : 18 = 2$ kanistr b. 2 – a.ga

Javob: 1 – avtomobilga – 3 k. benzin

2 – avtomobilga – 2 k. benzin.

Dam olish daqiqasi o`tkaziladi.

-Benzindan qaysi kasb egalari ko`proq foydalanadilar, nima maqsadda? Haydovchilik kasbi haqida tushuncha berish. Haydovchilik kasbi katta mahorat va xushyorlikni talab etadi.

O`quvchi:

Haydovchilik mening kasbim

Diqqat zarur albatta.

Uzoq yo`lni yaqin qilmoq,

Faxrlidir bu kasbda.

Shu o`rinda haydovchiga nisbatan “Sinkveyn” usulini qo`llaymiz:

1. 1 ta ot: haydovchi.

2. 2 ta sifat: diqqatli, hushyor.

3. 2 ta fe`l: mashina haydaydi, uzoqni yaqin qiladi.

4. 1 ta fikr: Haydovchilik kasbi katta mahorat va xushyorlikni talab etadi.

5. Sinonim so`z: mashina boshqaruvchi shaxs.

-O`ylaymanki, ana shularga rioya qilgan holda sizning ham orangizdan haydovchilar yetishib chiqadi.

602 – misol. Guruhlar o`rtasida “Mohir hizobchi” o`yini o`ynaladi.

1 – guruh

$$X: 20 = 180 : 9$$

$$X : 20 = 20$$

$$X = 20 \times 20$$

$$\underline{X = 400}$$

$$400 : 20 = 180 : 9$$

$$20 = 20$$

2 - guruh

$$100 + x \cdot 20 = 240$$

$$x \cdot 20 = 240 - 100$$

$$x \cdot 20 = 140$$

$$x = 140 : 20$$

$$x = 7$$

$$100 + 7 \cdot 20 = 240$$

$$240 = 240$$

3 – guruh:

$$60 + 360 : x = 100$$

$$360 : x = 100 - 60$$

$$360 : x = 40$$

$$X = 360 : 40$$

$$X = 9$$

$$60 + 360 : 9 = 100$$

$$100 = 100$$

Tez va to`g`ri bajargan guruh g`olib sanaladi.

Mustaqil ish.

603 – misol.

$$160 \times 300 - 300 \times 8 = 48000 - 2400 = 45600$$

Past o`zlashtiruvchi o`quvchilar o`rtasida musobaqa.

$$280 : 70 = 4$$

$$720 : 90 = 8$$

$$540 : 36 = 15$$


$$490 : 70 = 7$$

Misolni to`g`ri yechgan o`quvchi rag`batlantiriladi.

IV.Mavzuni mustahkamlash.

Klaster usuli.

Berilgan songa qoldiqli bo`linadigan sonni topib yozing.




Boshqotirma

10 – slayd.

“Al - Xorazmiy ” guruhiga.

“Olti” so`zi bilan boshlang.



1. Qimmatbaho metall nomi.

2. Uch xonali son.

3. O`g`il bola ismi

Javobi : oltin, 666, Oltiboy.

11 – slayd.

“A.R.Beruniy” guruhiga.

“Son + so`z” boshqotirmasi.

5 + ik = ?

40 + oyoq = ?

k + 3 = ?

8 + oyoq = ?

t + 10 = ?

Javobi: beshik, kuch, to`n, qirqoyoq, sakkizoyoq.

12 – slayd.

“Ibn Sino ” guruhiga.


Sonlarni o`rib bo`rish tartibida yozing va o`qing.

80	1	30	50	70	20	10	60	40	15
t	m	a	i	a	n	a	y	v	`

- Qanday so`z kelib chiqdi?

13 – slayd.

“Ma`naviyat”



**O`qituvchi :** Ma`naviyat nima?

**O`quvchi:** Ma`naviyat – insonning ulg`ayishi va kuch qudrat manbaidir.

**O`qituvchi :** “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asarining muallifi kim?

O`quvchi: I.A.Karimov.

**O`qituvchi:** I.A.Karimovning “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch” asari nechta bobdan iborat.

**O`quvchi :** “Yuksak ma`naviyat –yengilmas kuch” asari 4 bobdan iborat.

Bolajonlarim, hozir e`tiboringizga rebus taqdim etiladi. Ushbu rebusni to`g`ri yechsangiz, kishini do`stlikka,birodarlikka chaqiruvchi maqolni o`qiysiz.

14 – slayd.

Rebus.

" - " ~~sh~~ lganni  yer,

" : " ~~sh~~ nganni  yer.

O`quvchilar rag`batlantiriladi.

V. Darsni yakunlash.

Rag`bat kartochkalarini sanash orqali g`olib guruh aniqlanadi.

Darsda faol qishtirok etgan o`quvchilar rag`batlantiriladi.

Uyga vazifa beriladi va tushuntiriladi. 128 – bet, 604 - 605 masala va misollar.



**Zarafshon shahar №2 - umumiy
o`rta ta`lim maktab
boshlang`ich sinf o`qituvchisi**

**G`aybullayeva Habiba
Ismoilovnaning**

**yozgan bir soatlik
noan`anaviy dars ishlanmasi.**

Mavzu: Qoldiqli bo`lish.



2011 – 2012 o`quv yili.